

“AMIR TEMUR VATAN VA MILLAT TIMSOLI”

Aminchonova Mahbuba Ahmedovna

mahbubaaminzonova@gmail.com

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universiteti “Ijtimoiy gumanitar fanlarni oʻqitish metodikasi (tarix) fakulteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17092540>

Insoniyat tarixida eng katta va buyuk imperiyalardan biri Temuriylar imperiyasi asoschisi buyuk bobokalonimiz Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki bunyodkor, adolatli shaxs sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan boʻlib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda xamrohimiz va dasturimiz boʻlsin” degan chuqur maʼnoli soʻzlari har birimiz uchun hayotiy eʼtiqodga aylanishi zarur¹” degan soʻzlari ham buyuk Sohibqironning har ishda adolatli shaxs sifatida kelajak avlodga faxriy oʻrnak boʻla olishining yorqin ifodasidir.

Amir Temurning qanday shaxs va davlat arbobi boʻlganligi, hamda uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, saltanat taraqqiyoti yoʻlida amalga oshirgan islohotlar borasida koʻplab uning zamondoshlari ham, keyingi davr olimlari va siyosatchilari ham oʻz fikrlarini bayon etganlar. Ayniqsa Istiqlolimizning dastlabki yillari va shu bilan birga bugungi kunda ham, Amir Temur shaxsi va davriga oid shu qadar koʻplab manbalar tarjimai amalga oshirildi va oshirib kelinmoqda. Shu jumladan tarixiy-ilmiy, badiiy adabiyotlar yaratildiki, bu ularni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tizimlashtirish, ilmiy tahlil etish yutuq va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatini berdi. Bu tadbirlar samarasi oʻlaroq, Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid yangi tadqiqotlar, manbalar ilmiy muomalaga kiritildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Parlamentga yoʻllagan Murojatnomasida “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho meʼrosi, engilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy gurur va iftixor tuygularini kuchaytirishga alahida eʼtibor qaratishimiz kerak²” deb taʼkidlagan edilar. Bu beʼjizga aytilmadi albatta.

Istiqlolning dastlabki yillarida barcha sohalar singari tarixshunoslik sohasida ham ajdodlarimiz tarixini oʻrganish va ularga toʻgʻri baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun keng yoʻl ochildi va Oʻzbekiston olimlarining

samarali tadqiqotlari natijasida tarixchilgimizning ilgari nomaʼlum boʻlgan

sahifalari ochildi. Bir qator muhim manbalar nashr etildi. Natijada tarix fanida chuqur tadqiqotlar uchun imkoniyatlar vujudga keldi.

Dunyoga yuz tutgan, jahon tarixida oʻziga hos oʻrin egallagan Amir Temur va Temuriylar davri tarixi nafaqat oʻlkamiz, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umumeʼtirof etgan davr sifatida hali koʻplab tadqiqotlarni taqazo etadi. Zero, Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov taʼkidlaganidek “Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa oʻzlikni anglash mumkin emas³”.

Bugun xalqimiz Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi “Milliy tiklanishdan-milliy

¹Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: Oʻzbekiston. 2016. – B.56.

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2018 yil 28 dekabr) Xalq soʻzi, 2018 yil 29 dekabr.

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. Karimov I.A. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz-Toshkent-1999.T.7.- B.153

yuksalish sari” bosh g’oyasiga tayanib, Uchinchi Renesans poydevorini yaratish yo’lida birlashgan ekan, Vatanimiz tarixidagi ikkinchi uyg’onish davri bunyodkori Amir Temur shaxsini va siyosatini har tomonlama chuqurroq o’rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunonchi bugungi kunda Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, xalqimizga ma’naviy kuch bag’ishlab kelmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham “Ozroq vaqtim bo’lsa kitob o’qiyman. Sohibqiron Amir Temurning To’xtamishxonning jangi haqida o’qib chiqdim. Amir Temur bu jangda yettita usulni qo’llagan ekan. Jasorati, o’z askarlarini mardonavor tarbiyalashi bilan birga, janglarni ham o’zi boshqargan. O’zim uchun ham bu yangilik bo’ldi. Keyin kimdir shu jang usulini o’rgangani bilan qiziqib ko’rdim. Hech kim o’rganmagan ekan. Eng avvalo bobolarimizning usullarini o’rganishimiz kerak⁴”, — dedi va Sohibqironning jangovar merosini chuqur o’rganish bo’yicha topshiriq berganini aytdi.

Olib borilgan tariyshunoslik tahlili natijalariga ko’ra eng avvalo - Amir Temur va Temuriylar davriga oid tarixiy manbalar va tadqiqotlarning asosiy qismi mustaqillik davriga to’g’ri keladi. Mazkur yillarda Amir Temur va Temuriylar davri mavzusi doirasida nafaqat tarix balki, filologiya va san’atshunoslik fanlari yo’nalishlarida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Temuriylar tarixiga oid amalga oshirilayotgan ko’pgina manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi Temurshunoslikning katta yutu’i hisoblanadi, biroq shu bilan birga ularni darsliklar, ilmiy tadqiqotlarga etarli darajada jalb qilmoq lozim.

Bugungi kunda Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug’beklardan tashqari boshqa Temuriy shaxzodalar hayoti va faoliyati alohida dissertatsiya ishi sifatida o’rganilmagan. Temuriy shaxzodalar hayoti va faoliyatiga doir ishlarni amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratish lozimligi tarixchilarning oldida turgan ulkan vazifalardan biri bo’lib qolyabdi.

2010-2023 yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar Temuriylar davri Markaziy Osiyoning tarixiy geografiyasi, toponimik holatining ilmiy tahlil qilinganligi va bundan tashqari Amir Temurning Yaqin Sharqda olib borgan siyosatiga alohida e’tibor qatqilganligan.

Shuni o’rinda aytib o’tish joizki Amir Temur davrini o’rganishga oid nashrlar kun sayin ortib borayotganligi barchamizni quvontiradi albatta. Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot taraqqiyotiga, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga hissa qo’shgan davr, yurtdoshlarimizni esa ikki marotaba Renesansga asos solgan el sifatida e’tirof etadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O’zbekiston. 2016. – B.56.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2018 yil 28 dekabr) Xalq so’zi, 2018 yil 29 dekabr.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz-Toshkent-1999.T.7.-B.153

⁴<https://daryo.uz/2022/04/21/ozim-uchun-ham-bu-yangilik-boldi-shavkat-mirziyoyev-amir-temur-mudofaa-merosi-haqida-gapirdi/>

4. <https://daryo.uz/2022/04/21/ozim-uchun-ham-bu-yangilik-boldi-shavkat-mirziyoyev-amir-temur-mudofaa-merosi-haqida-gapirdi>

